

TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA MULTIMEDIA VOSITALARINING O'RNI VA IMKONIYATLARI

Egamberdiyeva Muslima Ziyodulla qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti

universiteti 3-bosqich talabasi

muslimaegamberdiyeva1224@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishda multimedia vositalarining o'рни va imkoniyatlari, zamonaviy texnologiyalar va multimedia resurslarining qanday yordam berishi, ularning ta'lim jarayonida samarali qo'llanilishi muhokama qilinadi. Olim va metodistlarning fikrlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: multimedia vositalari, audio fayllar, video materiallar, animatsiya, interaktiv multfilmlar, podkastlar.

Аннотация: В статье рассматриваются роль и возможности мультимедийных средств в развитии навыков аудирования учащихся, как в этом могут помочь современные технологии и мультимедийные ресурсы, а также их эффективное использование в образовательном процессе. Анализируются мнения ученых и методистов.

Ключевые слова: мультимедийные средства, аудиофайлы, видеоматериалы, анимация, интерактивные мультфильмы, подкасты.

Abstract: The article discusses the role and capabilities of multimedia tools in developing students' listening comprehension skills, how modern technologies and multimedia resources can help, and their effective use in the educational process. The opinions of scientists and methodologists are analyzed.

Keywords: multimedia tools, audio files, video materials, animation, interactive cartoons, podcasts.

Bugungi zamon tobora raqamlashtirilayotgan, internet va texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga chuqur kirib kelayotgan davr bo‘lib, ta’lim tizimi ham bu o‘zgarishlardan mustasno emas. Zamon o‘zgarmoqda, o‘quvchilar axborotni ko‘proq raqamli manbalar, audio va video formatlarda qabul qilmoqda. Endi o‘qituvchilar ham shu talab va ehtiyojlarga moslashishi, innovatsion texnologiyalarni egallashi va ularni dars jarayonida samarali qo‘llay olishi zarur. Chunki an’anaviy dars usullarining o‘zi bugungi kunda yetarli bo‘lmay qolmoqda. Zamonaviy pedagogika o‘qituvchidan nafaqat fan asoslarini yetkazishni, balki o‘quvchining shaxsiy rivojini ta’minlash, uning mustaqil fikrlashi, axborotni izlab topishi, tahlil qilishi va undan samarali foydalana olishini o‘rgatishni talab qiladi. Axborot texnologiyalari bilan qurollangan bugungi jamiyatda bilim olish manbalari ko‘payib, ularni egallash vositalari ham rang-barang bo‘lib bormoqda. Endi ta’lim jarayoni faqat darslik va daftar bilan cheklanib qolmaydi, u raqamli platformalar, interaktiv resurslar va multimedia vositalariga tayangan holda, yanada jonli va qamrovli shaklga ega bo‘lmoqda.

O‘qituvchi endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki o‘rgatuvchi, yo‘naltiruvchi, rag‘batlantiruvchi va ilhomlantiruvchi shaxs sifatida maydonga chiqmoqda. Uning dars berish uslubi, metodik yondashuvi, texnologik savodxonligi o‘quvchining darsdagi ishtirokiga, bilimga bo‘lgan qiziqishiga va hatto kelajakdagi hayotiy yo‘nalishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan, bugungi o‘qituvchi o‘z kasbiga faqat an’anaviy ko‘z bilan emas, balki doimiy izlanish va yangilanish ruhi bilan yondashmog‘i lozim. Shunday global va tezkor axborot almashinuvi jarayonida til o‘rganish, ayniqsa, ona tilini mukammal egallashda yangi vosita va metodlarga ehtiyoj kuchaymoqda. Shu boisdan, “multimedia texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchiga ko‘rgazmali materiallar namoyishini yanada samarali boshqarish, guruh ishini tashkil etish, odatiy ritm va ish uslubini buzmasdan o‘zlarining innovatsion ishlanmalarini yaratishga imkon beradi”[1].

Tinglab tushunish – bu o‘quvchining eshitilgan nutqni idrok etib, mazmunni tushunishi va unga nisbatan o‘z fikrini shakllantirish jarayonidir. Bu ko‘nikma til o‘rganishning boshlang‘ich va asosiy bosqichlaridan biri bo‘lib, og‘zaki muloqot kompetensiyasining shakllanishiga xizmat qiladi. Tinglab tushunishni rivojlantirish orqali o‘quvchilarning axborot qabul qilish, axborotni qayta ishlash, asosiy va ikkilamchi ma’lumotni farqlash, xulosa chiqarish va savollarga javob berish qobiliyatlari shakllanadi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda esa bevosita multimedia vositalarining ahamiyati katta. A.Shukin “Ta’limning audiovisual vositalaridan sistemali foydalanish o‘quvchiga motivatsiya beribgina qolmay, til o‘rganishdagi bo‘shliqlarini to‘ldirish uchun ham xizmat qilishi hamda darsning barcha bosqichlarida murojaat qilish mumkin”[2] ekanligini aytib o‘tadi. Psixologlarning fikriga ko‘ra, bolalar eshitish orqali ko‘proq emotsional va obrazli axborotni yaxshi qabul qilishadi. Demak, tinglab tushunish mashqlari nafaqat til o‘rganish, balki bolada e’tibor, xotira, tasavvur, tahliliy fikrlash, hatto empatiya kabi psixik jihatlarning rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, multimedia vositalari yordamida berilayotgan materiallar bolaga ruhan yaqin, emotsional jihatdan boy va sodda ifodalangan bo‘lishi muhimdir. Shunday ekan, “multimediali dars mashg‘ulotlarida o‘quvchiga ovozli ma’lumotlar (musiqa, nutq va boshqalar) hamda video ma’lumotlar (videolar, animatsion filmlar va boshqalar)ni uni qiziqtirgan fonlar orqali berishda imkon tug‘iladi. Multfilmlar, videokliplar, harakatlanuvchi rasmlar va matnlar, tasvirning rangi va hajmini o‘zgartirish, uning miltillab so‘nib borishi yoki paydo bo‘lishi, shubhasiz, bolada qiziqish uyg‘otadi”[3]. “Faoliyat yondashuvga asoslangan ta’limni inson faoliyatining sezgi, his, diqqat, xotira, tasavvur, fikrlash, nutq, aqliy va ruhiy jarayonlari bilan bog‘liq holda qamrab olish axborot asrida tez rivojlanib kelayotgan multimedia vositalari yordamida amalga oshirish samaradorligi tan olindi. Multimedia vositalari bilan ishlanganda o‘quvchi jarayonni bevosita o‘zi kuzatadi, uni boshidan kechiradi va o‘zi xulosa chiqaradi. An’anaviy dars va multimediali darslar solishtirilganda quyidagi afzalliklar ko‘zga tashlanadi: an’anaviy ona tili darsliklarida mavzuga tegishli materiallar matni hamda ba’zi o‘rinlarda statik ko‘rinishdagi rasm beriladi; multimedia ishtirokidagi darslarda mavzuga tegishli material matni, uni sharhlab beruvchi ovoz yoki video, mavzuga tegishli bir nechta rasm, diagramma, jadvallar, animatsiya, musiqaning birgalikda berilish imkoniyati

mavjud”[4]. Darsda qay turdagi multimedia vositasidan foydalanishni o‘qituvchi dars turi va uning maqsadidan kelib chiqqan holda tanlaydi. Quyida ba’zi samarali yo‘llarni keltirib o‘tamiz: audio fayllar – matnli audio yozuvlar orqali o‘quvchida mazmunni eshitish, asosiy g‘oyani ajratish, maxsus lug‘atlarni anglash va emotsional ohangni sezish qobiliyatlari rivojlanadi. video materiallar – bu vositalar tinglab tushunish bilan birga vizual idrokni ham faollashtiradi. Masalan, o‘quvchilar videodarsni tinglab, harakat, mimika, fonik belgilar orqali matn mazmunini yaxshiroq anglaydi. interaktiv platformalar – bu vositalar orqali audio yoki video asosida savol-javob, to‘ldirish, tartiblash, juftlash kabi topshiriqlar beriladi. Bu nafaqat eshituv faoliyatini kuchaytiradi, balki o‘quvchini faol tinglovchiga aylantiradi. virtual suhbatlar va QR kodli topshiriqlar – hozirda raqamli kontent asosida yaratilgan testlar va topshiriqlar yordamida eshitganini real muloqotga aylantirish imkoniyati mavjud. Ushbu usullar yordamida darsni tashkil qilib, multimediyali darslar va an’anaviy darslarning farqini ko‘rishimiz mumkin. Multimedia vositalari orqali tashkil qilingan darsda o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikma va sifatlar shakllanadi:

1. Matn mazmunini anglash qobiliyati – o‘quvchilar eshitgan matnni tahlil qilish, asosiy fikrni ajratish va kerakli ma’lumotni ajratib olishni o‘rganadi.

2. Xotira va diqqatni kuchaytirish – audio va video materiallarni tinglash orqali o‘quvchilar axborotni eslab qolish, tafsilotlarni diqqat bilan kuzatish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

3. Kommunikativ ko‘nikmalar – o‘z fikrini aniq ifodalash, eshitganiga mos munosabat bildirish va real hayotiy suhbatlarda faol qatnashish uchun zarur bo‘lgan muloqot qobiliyatlari rivojlanadi.

4. Emotsional sezgirlik – matnlarning emotsional mazmunini tushunish, intonatsiya va ohangni his qilish orqali nutq madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi.

5. Mustaqil fikrlash va xulosa chiqarish – eshitgan ma’lumotni qayta ishlash, undan xulosa chiqarish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasi shakllanadi. Ko‘rinib turibdiki, multimedia darslarining imkoniyatlari va afzalliklari keng. Lekin o‘qituvchi darsni shakllantirishda pedagogik, psixofiziologik hamda metodik talablarni inobatga olishi zarur. Yuqorida darsni tashkil qilishga oid ba’zi yo‘llarni aytib o‘tgan edik, endi aynan

qaysi usullar yordamida darsni yanada qiziqarli va saviyali qilish mumkinligini ko'rib chiqamiz:

–simulyatsiyalar va virtual haqiqat (VR) – o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga tushiradigan texnologiyalar bo'lib, ular orqali murakkab tushunchalarni eshitish va amalda ko'rish orqali o'zlashtirish imkonini yaratadi. Masalan, tarixiy voqealarni yoki tabiiy jarayonlarni ko'rish va eshitish orqali tushunish.

–interaktiv ovozli hikoyalar – o'quvchilar hikoya rivojini tanlash orqali faol tinglovchiga aylanadigan vositalar bo'lib, ularning fikrlash va tanlov qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu usul matnni chuqurroq anglashga yordam beradi.

–musiqali mashqlar – musiqadan foydalanib, eshitish ko'nikmalarini mustahkamlash, intonatsiya va talaffuzni o'rgatish uchun mo'ljallangan mashqlar. Ular o'quvchilarni emotsional jihatdan qo'llab-quvvatlaydi va qiziqishni oshiradi.

–alohida ovozli topshiriqlar – maxsus audio yoki ovozli muloqotlar orqali o'quvchilarni faollashtiradigan topshiriqlar bo'lib, tinglash malakasini oshirish bilan birga, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

–suhbatli chatbotlar – sun'iy intellektga asoslangan botlar yordamida o'quvchilarga real suhbat tajribasini yaratib beruvchi vositalar. Ular eshitish, so'zlash va tezkor javob berish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

–interaktiv multfilmlar yoki animatsiyalar – bolalar uchun mo'ljallangan rang-barang hikoyalar bo'lib, ular orqali tinglab tushunish malakasi sezilarli darajada oshadi. Ular ko'rish va eshitish sezgilarini bir vaqtda faollashtiradi.

—ovozli hujjatlar va podkast sharhlari – ilmiy maqola yoki yangiliklarni tinglash orqali matnni tahlil qilish, asosiy g'oyani ajratish va axborotni qayta ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan. Tinglab tushunish, shunchaki tovush signallarini qabul qilish emas, balki ushbu signallarni nutqqa aylantirish demakdir. Shunday ekan, ushbu nutqiy ko'nimani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish joiz. Buning uchun o'qituvchidan yuqori metodik va pedagogik mahorat talab qilinadi.

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, tinglab tushunish ko'nikmasi har qanday til

o'rgatish jarayonida asosiy komponentlardan biri bo'lib, uni rivojlantirishda multimedia vositalari katta ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning eshitish qobiliyatlarini kuchaytirib, ularning tahliliy fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois, o'qituvchilar multimedia vositalaridan to'g'ri foydalanib, darslarni qiziqarli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishlari muhimdir. Kelajakda bu yo'nalishda yangi texnologiyalar va o'quv materiallari yaratilishi, tinglab tushunish ko'nikmasining yanada takomillashishi kutilyapti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юрова Ю. Инновационные лингводидактические аспекты адаптационной самостоятельной работы. Дисс. Кан.пед.наук. – Москва, 2011.
2. Щукин А.Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. Учебное пособие. Москва. «Высшая школа» 2003. –С.229.
3. S.Kuldasheva. Multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari va afzalliklari/ maqola. "O'zbek tilini dunyo miqyosida keng targ'ib qilish bo'yicha hamkorlik istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2020. 507 b.
4. Z.Xudayberganova, S.Kuldasheva. Nutqiy va lingvistik ko'nikmalarni rivojlantirishda multimediali ta'limning o'rni/ maqola. "Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti" an'anaviy VII respublika ilmiy-a'maliy anjuman materiallari 2023. 296 b.